

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026- yilning 1 yanvar holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 768 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 853 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,8 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 299 tasi (10,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 245 tasi (8,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 239 tasi (8,6 %) kiyim ishlab chiqarishga va 195 tasi (7,0 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 yanvar holatiga ko'ra



II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 29 094,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29 094,0	105,3
Nukus sh.	7 604,6	94,1
Amudaryo tumani	2 713,2	118,5
Beruniy tumani	1 057,5	110,6
Bo'zatov tumani	72,7	110,1
Qorao'zak tumani	1 004,3	108,2
Kegeyli tumani	423,8	108,2
Qo'ng'iro't tumani	1 679,9	109,4
Qanliko'l tumani	548,3	109,4
Mo'ynoq tumani	621,0	121,4
Nukus tumani	633,5	112,4
Taxiatosh tumani	3 779,5	105,3
Taxtakopir tumani	427,9	109,8
To'rtko'l tumani	990,2	105,5
Xo'jayli tumani	705,8	109,8
Chimboy tumani	553,1	106,9
Shumanay tumani	796,2	132,7
Ellikqal'a tumani	907,0	109,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (21 912,6 ming so'm), Taxiatosh tumanida (48 721,6 ming so'm), Qorao'zak tumanida (18 348,0 ming so'm), Mo'ynoq tumanida (18 261,2 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (14 251,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shumanay tumanida (131,8 %), Mo'ynoq tumanida (120,5 %), Amudaryo tumanida (116,7 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-dekabr oylarida*



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 24 674,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (84,8 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 476,3 mlrd so'm (1,6 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3 775,0 mlrd so'm (13,0 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 168,0 mlrd so'm (0,6%) ni tashkil etdi.

*Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-dekabr oylarida*



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 81,5 ming tonna ip kalava (2024- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 3,2 marta ko'paygan), 77,7 ming tonna bug'doy uni (12,7 % ga ko'paygan), 1 019,3 ming tonna portlandsement (4,0 % ga ko'paygan), 228,6 ming tonna dinatriy karbonati (2,9 % ga ko'paygan), 16,3 ming tonna paxta tolasi (58,4 % ga kamaygan), 3 486,7 ming litr aroq (0,2 % ga kamaygan), 7,6 ming tonna o'simlik yog'i (19,8 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-dekabr*	2024 yil yanvar-dekabr*	2025 yil yanvar-dekabr
Portlandsement, tonna	488 112	980 512,8	1 019 294
Paxta tolasi, tonna	32 528,4	39 290,3	16 349,6
Tozalangan o'simlik yog'i, tonna	7 329,0	6 306,8	7 558,1
Bug'doy uni, tonna	85 991,7	68 905,1	77 672,4
O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	3 701	5 882	3 689
Aroq, ming l 100% li spirt	3 388,8	3 494,8	3 486,7
Ip kalava, tonna	18 597,3	25 615	81 517,2
Tabiiy gaz, mln kub.m	999,6	866,8	851,8
Gaz kondensati, ming t	63,6	50,5	45,4
Dinatriy karbonati, ming t	212,7	222,1	228,6

**2023-2024 yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,1 % (2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,7 % (2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 30,7 % ni (33,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 10,6 % ni (7,5 %), quyi texnologiyali 58,7 % (43,8 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 91,8 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 73,9 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-dekabr*	2024 yil yanvar-dekabr*	2025 yil yanvar-dekabr
Elektrenergiya, mln.kvt.s	5 149,3	5 065,3	4 647,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	43,1	42,6	31,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	129 918,3	158 193,5	193 295,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 129,6 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 16,1 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 14,6 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-dekabr*	2024 yil yanvar-dekabr*	2025 yil yanvar-dekabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	8 524,8	9 223,2	10 709,4
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	9 459,1	12 364,9	28 391,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	65 157,1	85 722,2	98 226,2

**2023-2024 yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 027,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,3 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 39,6 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
